


II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yil yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 918,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 106,6 %ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 93,2 %ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni qazish - 0,3 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,8 %ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 0,8 %ini tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan 2022-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ni tashkil etdi.


Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi - 16,3 %ni tashkil qildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 970,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,2 %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 44,1 mlrd. so'mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3%), o'rta-yuqori texnologiyali 2 013,4 mlrd. so'mni, (15,5 %), o'rta-quyi texnologiyali 2 875,2 mlrd. so'mni (22,2 %), va quyi texnologiyali 8 038,1 mlrd. so'mni, (62,0 %) tashkil etdi.

**Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning
texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)**

	O'lchov birligi	2022-yil yanvar-iyun	2021-yil yanvar- iyun holatiga nisbatan, % da
Avtomobil benzini	ming tonna	95,4	82,8
Dizel yoqilg'isi	ming tonna	140,5	81,2
Uzum vinosi	ming litr	348,1	69,0
Neft bitumi	ming tonna	11,6	48,1
Superfosfat	ming tonna P2O5	19,0	170,7
Paxta chigiti	tonna	44 858,4	162,7
Shisha idishlar	ming dona	10 376,0	39,5
Gips	tonna	31 250,9	104,3

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 803,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 %ni) tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 128,6 %ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 109,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ni) tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,3 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	13 918,1	100,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	34,8	0,3
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatining boshqa turlari	34,8	0,3
Qayta ishlash sanoati	12 970,8	93,2
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	1 834,2	13,2
to'qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	5 663,9	40,7
yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari	413,5	3,0
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	4,3	0,03
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	852,2	6,1
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	1 414,7	10,2
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	18,0	0,1
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1 456,2	10,5
metallurgiya sanoati	48,3	0,3
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	269,4	1,9
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	26,1	0,2
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	56,7	0,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	174,1	1,3
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	285,8	2,1
Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	82,0	0,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	122,2	0,9
Mebel ishlab chiqarish	117,7	0,8
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	4,2	0,03
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	803,4	5,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	109,0	0,8
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	4 214,1	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	1 601,8	38,0
nooziq-ovqat tovarlari	2 612,3	62,0


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 4 214,1 mlrd.so'mni tashkil etdi. 2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,1%ni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 30,3%ni tashkil etdi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da (yanvar-iyun oylari uchun)




Hududlarning viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning xissasi

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mos ravishda oshishiga olib keldi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 38,6 %ni tashkil etmoqda.



Hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi.


(2022- yil yanvar-iyun oylari, % hisobida)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi tahlili Farg'ona shahrida (10 815,0 ming so'm), Quvasoy shahrida (6 615,5 ming so'm), Qo'qon shahrida (9 677,3 ming so'm), Toshloq tumani (8 987,1 ming so'm) ni da viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda

(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 10347 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1419 tasi Qo'qon shahri, 1204 tasi Farg'ona shahri, 1035 tasi Marg'ilon shahri, 305 tasi Quvasoy shahri, 691 tasi Uchko'prik tumani, 627 tasi O'zbekiston tumani, 614 tasi Dang'ara tumani, 565 tasi Buvayda tumani, 484 tasi Quva tumani, 470 tasi Rishton tumani, 456 tasi Toshloq tumani, 446 tasi Oltiariq tumani, 426 tasi Bog'dod tumani, 313 tasi Farg'ona tumani, 308 tasi Qo'shtepa tumani, 292 tasi Beshariq tumani, 244 tasi Yozyovon tumani, 228 tasi So'x tumani 220 tasi Furqat tumaniga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 971 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 122 tasi Farg'ona shahri, 94 tasi Dang'ara tumani, 75 tasi Qo'qon shahri, 63 tasi Rishton tumani, 58 tasi O'zbekiston tumani, 57 tasi Toshloq tumani, 55 tasi Buvayda tumani, 54 tasi Marg'ilon shahri, 52 tasi Qo'shtepa tumani, 48 tasi Beshariq tumani, 43 tasi Farg'ona tumani, 38 tasi Quva tumani, 35 tasi Quvasoy shahri, 34 tasi Bog'dod tumani, 33 tasi Yozyovon tumani, 32 tasi Oltiariq tumani, 30 tasi So'x tumani, 28 tasi Uchko'prik tumani, 20 tasi Furqat tumaniga to'g'ri keladi.

Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yil boshidan yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yil yanvar-iyun oylari uchun, soni birlikda)



Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning mulkchilik shakllari, %da
 (2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)

